Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yashil xizmatlar konsepsiyasi o'z rivojlanish tarixiga ega, degan xulosaga kelish mumkin hamda uni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – 1950–1960-yillar iqtisodiyotning atrof-muhit hamda insonga salbiy ta'sirini anglab yetish davri hisoblanadi. Bu davrda iqtisodiy rivojlanish hamda atrof-muhitning degradatsiyalashuvi o'rtasidagi bog'liqlik to'liq anglab yetilgan bo'lsa-da, ekologik muammolar iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilish zarurligini e'tiborga olish bilan cheklanib qolgan.

Bu davrda atrof-muhitning degradatsiyalashuviga bag'ishlangan qator xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Jumladan, 1955-yilda dunyoning yirik shaharlarida zaharli gazlardan o'lim holatlarining ko'payishi atmosfera ifloslanishiga bag'ishlangan birinchi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

"Xalqaro darajada muvofiqlashtirish hamda kelishuvning yo'qligi, biznes hamda atrof-muhit muhofazasi borasidagi vazifalarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi edi. BMT Bosh Assambleyasi 1962-yil 18-dekabrda "Iqtisodiy rivojlanish hamda tabiatni muhofaza qilish" (1831 (XVII)) to'g'risidagi rezolyutsiyasini qabul qildi" [5].

Ikkinchi bosqich – 1960–1970-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda barqaror iqtisodiy rivojlanish tufayli tabiiy va iqtisodiy resurslardan jadal sur'atlarda intensiv foydalanish hamda atrof-muhitni ifloslantirish iqtisodiyotning moddiy-resurs bazasini izdan chiqarishi hamda inson turmush farovonligining pasayishiga olib kelishi to'g'risidagi bahs-munozaralar kuchaydi. Muhokamalardagi bosh g'oya tabiiy resurslarni hamda inson uchun qulay atrof-muhitni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat edi.

1970-yillarda tabiiy resurslar muhofazasiga bag'ishlangan turli xil tashkilotlarning harakat dasturlari shakllana boshladi. 1970-yilda AQShning ekologik siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida Tabiiy resurslarni muhofaza etish bo'yicha kengash tashkil etildi. Shu yili atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha birinchi milliy seminar shaklida Yer kuni o'tkazildi. 1971-yilda Angliyada Atrof-muhit muhofazasi hamda taraqqiyoti bo'yicha xalqaro institut tashkil etilib, uning maqsadi tabiatga ziyon yetkazmay iqtisodiy rivojlanish yo'llarini izlashdan iborat edi. 1972-yilda Stokgolmda (Shvetsiya) atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan BMT konferensiyasi bo'lib o'tib, unda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich – 1980–1990-yillar. Ushbu davr rivojlangan mamlakatlarda "yashil texnologiyalar"ning jadal sur'atlarda rivojlanish bosqichi bo'lib, ekologik modernizatsiya g'oyasi ilgari surildi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmuni iqtisodiy o'sish hamda sanoatning rivojlanishi ekologik jihatdan moslashishi iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda mutaxassislar o'rtasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi shakllana boshladi.

1983-yilda Atrof-muhit hamda rivojlanish bo'yicha Butunjahon komissiyasi tashkil etildi. Komissiya uch yil davomida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamda ekologik omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalarini o'rgandi. Mazkur ma'ruza "barqaror rivojlanish" (sustainable development) tushunchasini ommalashtirishga xizmat qildi.

Barqaror rivojlanish (ingl. sustainable development) — bu iqtisodiy hamda ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, unda tabiiy resurslar ekspluatatsiyasi, sarmoyalar yo'nalishi, ilmiy-texnik rivojlanish, shaxs rivoji hamda institutsional o'zgarishlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, inson ehtiyojlarini qondirish uchun bugungi hamda ertangi salohiyatni shakllantiradi. Ushbu holatda asosan inson hayoti sifatini oshirish nazarda tutiladi.



1992-yilda Rio-de-Janeyroda Atrof-muhit hamda rivojlanish bo'yicha konferensiya (Yer sammiti) o'tkazildi. 1997-yilda Kioto protokoli imzolandi. Kioto protokoli — BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hadli konvensiyasi (1992-yil)ga qo'shimcha ravishda qabul qilingan hujjat bo'lib, Yaponiyaning Kioto shahrida 1997-yil dekabr oyida qabul qilingan. Ushbu hujjat turli xil mamlakatlar va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldiga issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish vazifasini qo'ydi [6].

To'rtinchi bosqich – 2000–2010-yillar. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining xalqaro va milliy qonunchilikda, biznes muhitida hamda ommaviy axborot vositalarida qayd etilishi va mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz xalqaro iqtisodiy tizimlarning beqarorligi muammosini yangicha talqin etishga undadi. “Erkin bozor” biosfera resurslarini saqlab qolish hamda ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish, uzoq muddatli davrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan o'z-o'zini tartibga solishga qodir emasligi g'oyasi ilgari surildi.

Ushbu bosqichda xalqaro sammitlar hamda konferensiyalar o'tkazildi. Ular jumlasiga 2000-yilda Nyu-York shahrida o'tkazilgan BMTning Ming yillik sammiti (Ming yillik maqsadlarining e'lon qilinishi), 2002-yilda Yoxannesburgda o'tkazilgan “Rio+10” Barqaror rivojlanish bo'yicha umumjahon sammiti hamda 2012-yilda Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha “Rio+20” nomini olgan konferensiyasini kiritish mumkin.

“Yashil xizmatlar” tushunchasi 2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida BMT tizimida keng qo'llanila boshladi. Jumladan, 2009-yilda UNEP tomonidan “Yangi yashil kurs” deb nomlangan tahliliy ma'ruza e'lon qilindi. Mazkur ma'ruzada sanoat hamda infratuzilmada “yashil investitsiyalar” yoki ekologik “sof” texnologiyalarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etildi [7]. UNEP “yashil” rag'batlantirish g'oyasini himoya qilib, yirik miqdordagi davlat investitsiyalari “yashil xizmatlar”ning rivojlanishi uchun turtki berishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlab berdi.

Yashil xizmatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi [8].

“Iqtisodiy adabiyotda yashil xizmatlar tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo'llanilganligiga qaramasdan, uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda yashil xizmatlar mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba'zi tadqiqotlarda yashil xizmatlar tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi. Uchinchi guruh tadqiqotlarda esa yashil xizmatlar ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki “yashil” texnologiyalar tashkil etadi, deyiladi” [9].

Yashil xizmatlar tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, yashil xizmatlar — ekologik risklar hamda ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidir. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi yashil xizmatlar konsepsiyasi shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “yashil xizmatlar” nazariyasi, tamoyillari yoki “yashil xizmatlar” siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin [10].

Qayd etib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda yashil xizmatlarning tor va keng ma'nodagi ta'riflarini farqlash mumkin. Tor ma'noda yashil xizmatlarni an'anaviy iqtisodiyot bilan yonma-yon rivojlanayotgan muayyan tarmoqlar yig'indisi sifatida tavsiflash mumkin.

Keng ma'noda esa yashil xizmatlar uchun muhim dinamik jihat, ya'ni iqtisodiy tizimda ekologiyaga yo'naltirilgan o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, “barqaror rivojlanish”, “yashil o'sish” hamda “yashil xizmatlar” tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yashil xizmatlar tushunchasining mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini beradi. Yashil xizmatlarni shakllantirish “yashil o'sish”ni ta'minlab beradi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi. Demak, yashil xizmatlarni barqaror rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning asosi sifatida qabul qilish mumkin.

Tahlillar iqtisodiy adabiyotlarda “yashil xizmatlar”ni rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari ajratilganligini ko'rsatadi:

1. Yashil xizmat ko'rsatishda tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish. “Energetika sektori iqlim o'zgarishlariga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi soha hisoblanadi va atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish miqdorining 60% ga yaqini ushbu sektor hissasiga to'g'ri keladi. Tahlillar ko'rsatishicha, yer sharida istiqomat qiluvchi aholining har beshtasidan biri yoki 1,2 mlrd kishi elektroenergiyadan foydalanish imkoniyatidan mahrum. 2,8 mlrd kishi esa ovqat tayyorlash va yashash joyini isitish uchun daraxt, ko'mir va hayvonlar axlatidan foydalanadi. Bu esa uy havosining buzilishi oqibatida har yili 4 milliondan ortiq kishining o'limiga sabab bo'lmoqda. Dunyo mamlakatlari “yashil energetika” sohasini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirishga sarflanayotgan yillik investitsiyalar miqdorini 2030-yilgacha hozirgi 400 mlrd dollardan 1,25 trln dollargacha oshirishlari zarur bo'ladi.



2. Yashil xizmat ko'rsatishda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. "Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg dan 3 kg gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. AQShda ushbu ko'rsatkich har 10 yilda 10% ga ortib bormoqda. Rossiyada esa chiqindilar to'planadigan maydonlar 2 ming kv. km dan ortiq maydonni tashkil etadi" [11]. Shu bilan bir vaqtda, chiqindilarni oqilona boshqarish tizimini yaratish jiddiy iqtisodiy dividend keltirishi mumkin. Jumladan, Buyuk Britaniyada "2005–2010-yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln tonna chiqindi qayta ishlangan hamda ulardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilgan. Bu esa 6 mln tonna issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish, 10 mln tonna birlamchi materiallar va 10 mln litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ish o'рни yaratilgan" [12].

3. Suv resurslarini boshqarishda yashil xizmatlar tizimlarini takomillashtirish. Yer sharida har oltinchi kishi ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Iqlim o'zgarishi, suvning global tabiiy aylanishining faollashuvi natijasida iqlimi nam hududlarda namgarchilik darajasi yanada oshib borayotgan bo'lsa, iqlimi quruq mintaqalarda qurg'oqchiliklar avj olmoqda. Hozirgi vaqtda 3,6 mlrd kishi, ya'ni yer shari aholisining deyarli yarmi yiliga bir oydan kam bo'lmagan muddatda suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi va 2050-yilgacha ushbu ko'rsatkich 4,8 mlrd kishidan 5,7 mlrd kishigacha ortishi mumkin.

4. "Sof", "barqaror" yoki "yashil transport" xizmatlarini rivojlantirish. UNEP aholining umumiy harakatiga ziyor yetkazmasdan transportga, avvalo, xususiy transport vositalariga bo'lgan talabni qisqartirish ustida tadqiqotlar olib bormoqda. "Yashil transport" deganda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiruvchi harakatlanishning har qanday usuli yoki tashkiliy shakli tushuniladi. Yashil transportga piyoda hamda velosipedda harakatlanish, ekologik avtomobillar, jamoat transportiga qulay o'tish zonalarini loyihalashtirish, tejamkor, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi va yashash maydonini saqlab qolishga ko'maklashuvchi shahar transport tizimlarini kiritish mumkin.

Transport tizimlari atrof-muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi, jahon energiyasi iste'moli hamda issiqxona gazlarining 20–25%i bevosita transport hissasiga to'g'ri keladi. "2050-yilga borib jahon avtoparkining soni uch baravarga ortishi kutilmoqda. Shu sababli UNEP tashkiloti Xalqaro avtomobil federatsiyasi va IHTning Xalqaro transport forumi hamkorligida "50-yilgacha 50 foizini" tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbusdan maqsad 2050-yilgacha jahon avtoparkining samaradorligini 50% ga oshirish hisoblanadi. Toshkent shahrida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining 90%i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi. Toshkentda avtotransport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zaharli moddalar miqdori yiliga 395 ming tonnani tashkil etadi. Ushbu zaharli moddalar miqdori 2018-yilda O'zbekiston bo'yicha 2 mln 449 ming tonnani tashkil etgani holda, avtotransport ulushi 60% ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich jahonda belgilangan andozadan 3 marta yuqori hisoblanadi.

5. Agroxizmatlar ishtirokida qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish. "Qishloq xo'jaligida gerbitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar hamda sun'iy o'g'itlardan foydalanishdan voz kechish taklif etilmoqda. Organik qishloq xo'jaligi global yashil xizmatlarning muhim yo'nalishi sifatida dunyoning 178 mamlakatida rivojlantirilmoqda. Organik ishlab chiqarish uchun ajratilayotgan yer maydonlari yildan-yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2019-yilda jahon bo'yicha 70 mln gektardan ortiq maydon organik qishloq xo'jaligi asosida foydalanilmoqda hamda ushbu ko'rsatkich jahon qishloq xo'jaligi yerlarining taxminan 1,4% ini tashkil etadi.

6. Uy-joy kommunal xo'jaligi xizmatlarida energiya samaradorligini oshirish. Samarasiz isitish tizimlari hamda asbob-uskunalar bilan jihozlangan uy-joylarning mavjudligi issiqlikni sezilarli darajada yo'qotishga olib keladi.

7. Yashil xizmatlar asosida ekotizimlarni saqlab qolish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish. "Inson faoliyatining barcha turlari biomuhitning o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlarning yo'nalishi hamda miqyosini "ekologik inqiroz" deb baholash mumkin. BMT ma'lumotlariga ko'ra, yer shari quruqlik qismining 30,7%i o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir vaqtda iqlim o'zgarishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Insoniyat har yili 13 mln gektar o'rmonzorlarni yo'qotmoqda, yerlarning muntazam ravishda degradatsiyalashuvi esa 3,6 mln gektar yer maydonining cho'llashuviga olib keldi. Dunyoda ma'lum 8 300 turdagi hayvonlarning 8,0%i yo'q bo'lib ketgan bo'lsa, 22,0%i yo'qolib ketish arafasida. 80 ming turdagi daraxtlarning bor-yo'g'i 1,0% ga yaqini potensial foydalanish nuqtai nazaridan o'rganilgan" [13].

8. Yashil xizmatlarni rivojlantirish uchun ekologik xavfsiz konsalting xizmatlarini rivojlantirish darajasiga erishish. Bunda yashil iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida konsalting xizmatlarining quyidagi nazariy asoslariga ustuvorlik berildi.

Yashil xizmatlarda konsalting — maxsus kompaniyalarning iqtisodiy, moliyaviy, tashqi iqtisodiy faoliyat, firmalarni tashkil qilish va ro'yxatdan o'tkazish, tovarlar va xizmatlar bozorlarini, innovatsiyalarni tadqiq etish va prognozlashga oid masalalarda ekologik masalalar bo'yicha maslahatlar, tavsiyalar berishdan iborat faoliyatdir.

Shunday ekan, yashil xizmatlar sharoitida konsalting (maslahat) juda keng tushunchadir. Sababi konsalting xizmatlari orqali ekologik xavfsizlik talablariga mos tadbirkor muammolarini hal etishda yordam berish va yuzaga keladigan ekologik muammolar yechimi, raqobat va qonunchilik nuqtai nazaridan zamon talabiga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyotni tizimli rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi konsalting xizmatlarining

mohiyati shundaki, mijozga ekologik xavfsiz konsalting xizmatlari bo'yicha axborot va tavsiyalar berish orqali maqsadlariga erishtirish, uning faoliyati samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Bugungi kunda yashil xizmatlar sharoitida konsalting xizmatlariga nisbatan biznes ahli tomonidan aniq bir mukammal tushuncha va ta'rif mavjud emas, chunki ekologik xavfsiz muammolarni hal etishda konsalting xizmatlarining turlari bo'yicha aniq standart ro'yxatlari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun turli xil konsalting tashkilotlari yashil iqtisodiyot sharoitiga mos konsalting xizmatlarining asosiy yo'nalishlarini o'z tajribasiga tayangan holda turli usullar bilan tasniflashmoqda va faoliyat olib bormoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, konsalting xizmatlari asosida ofset qilishda, buxgalteriya dasturlarini yaratishda, hatto siyosiy imidj yaratishda ham foydalanish mumkin. Konsalting konsepsiyasining har biri o'z faoliyatining amaliy yo'nalishi bilan belgilangani bois ko'pincha chalkashliklar kelib chiqmoqda.

Yashil xizmatlar sohasida konsalting xizmatlari va izlanishlar aniq masalalar bo'yicha olib borilishi shart va bugungi kunda respublikamizda texnik rivojlanish, yuqori saviyali kadrlarni tanlash, kompaniya imidjini yaratish, qimmatbaho qog'ozlarni sotish va sotib olish bo'yicha maslahatlar, muhandislik masalalari, tadbirkorlik ko'nikmalari, joylarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yashil iqtisodiyot talablariga mos konsalting xizmatlariga ehtiyoj vujudga kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, yashil iqtisodiyot samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratuvchi konsalting xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiruvchi quyidagi mezonlarni taklif etdik:

- yashil xizmatlarga mos korxonalarda muayyan muammolarni hal qilish bo'yicha aniq axborotlar darajasini aniqlash;
- yashil xizmatlarga mos korxonalarda vujudga keladigan ekologik muammolar bo'yicha mustaqil ekspertlar baholash darajasiga erishish;
- yashil xizmatlar sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni o'qitish va malakasini oshirishga erishish;
- yashil xizmatlar sohasi korxonalari samaradorligini ta'minlovchi yuqori sifatli konsalting xizmatlariga erishish.



1-rasm. Yashil xizmatlar sohasining lokallashtayotgan institutsional me'yoriy tizimi¹

1 Muallif ishlanmasi



Yashil xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy institutlar tizimi tuzilmasining milliy darajasiga oid qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat (1-rasm):

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Xususan, ushbu me'yoriy hujjatda har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari belgilab berilgan bo‘lib, jumladan, unda respublika hududida barcha fuqarolarning dam olishi (IX-bob, 38-modda), har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi (IX-bob, 40-modda), madaniyat yutuqlaridan foydalanishi kabi huquqlari kafolatlangan (IX-bob, 42-modda);

– O‘zbekiston Respublikasining qonunlari. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”, “Davlat yer kadastriga to‘g‘risida”, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ–409-son² Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuniga asosan yangi tahrirdagi hujjatlar;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son³ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–436-son⁴ qarori va boshqa qarorlar;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- boshqa vazirlik va idoralarning huquqiy hujjatlari.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son⁵ Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi “2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3422-son⁶ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-son⁷ qarori hamda yashil xizmatlar sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur sohaning institutsional asoslari bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil xizmatlar konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va investitsiyalar faolligini oshirish, atrof-muhit muhofazasi hamda ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik hamda ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Fikrimizcha, yashil xizmatlar barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmaydi hamda barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni shundan iboratki, hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi kerakki, keyingi avlodlar ulardan kam bo‘lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozim. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik komponentlarni yaxlit va o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi.

Yashil xizmatlar konsepsiyasi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur konsepsiya ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi turmush sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bioxilma-xillikning qisqarishi, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

2 O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ–409-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-3030362>

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–436-son qarori: <https://lex.uz/docs/-6303230>

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi “2018–2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3422-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-3436209>

7 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 373-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-5458249>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://www.rachelcarson.org/silent-spring>
2. <https://esg-library.mgimo.ru/publications/ecological-economics-and-sustainable-development>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. <https://www.goodreads.com/book/show/245531975-we-have-only-one-earth>
5. <https://www.un.org/ru/ga/17/docs/17res.shtml>
6. <http://unfccc.int/resource/docs/convkp/kprus.pdf>
7. Глобальный «зелёный» новый курс: доклад UNEP / UNEP. – 2009. – URL: http://www.unclearn.org/sites/www.unclearn.org/files/inventory/UNEP90_RUS.pdf
8. Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // КонсультантПлюс. – 2002–2013.
9. Pearce D., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – 192 p.
10. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др. – ЮНЕП/GRID-Arendal, 2011. – С. 176.
11. Корнилов А.М. Зарубежный опыт управления отходами // Вторичное сырьё. – URL: <http://www.recyclers.ru/modules/section/item.php?itemid=56>
12. <http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add-2-trillion-annually-global-economy>
13. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/biodiversity/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>